

**XX ASR O‘ZBEK SHE’RIYATIDA JADIDCHILIK HARAKATI G‘OYALARI BADIY  
IFODASI****(Usmon Azim ijodi misolida)****Feruza Sultonqulova Bobonazarovna**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek adabytshunosligi kafedrasida dotsenti  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.<https://doi.org/10.5281/zenodo.17195437>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek she‘riyatining yorqin namoyandasi Usmon Azim she‘riyatida jadidchilik harakati g‘oyalarining badiiy ifodasi haqida so‘z yuritiladi.

*Shoirning jadid siymolariga bag‘ishlangan she‘rlarida ularning obrazi orqali Erk va Istiqlof g‘oyasi, erkin, hur fikrli shaxsning qarashlari badiiy ifodlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, obraz, erk, lirik qahramon. Cho‘lpon, Fitrat, drama.

Ma‘lumki, jadidlar mustabid tuzumga qarshi “Najot Ilmdadir” (Behbudiy) ma‘rifat bilan kurashganlar. Ayniqsa, jadid ijodkorlari faoliyatiga nazar tashlasa, ular xalqni savodli qilish, ong va tafakkurini yangi fikrlar bilan o‘zgartirish, diniy hamda dunyoviy ilmlarni o‘qitish, yangi ilm, yangi avlod yangi ta‘limni yo‘lga qo‘yib o‘z maqsadlarini amalga oshirishga intilganlar.

Ayniqsa, bu maqsad Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida Erk va Hurlik tarannumi, Behbudiyning maqolalaridagi dav‘atkorlik, Fitrat ijodidagi ramziy va majoziy tasvirlash usuli, Abdulla Qodiriy asarlaridagi kuchli zaharhanda “Ezop tili”da namoyon bo‘ldi.

Hozirgi davr she‘riyatining yetakchi namoyandasi O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodining ilk yillaridayoq jadidchilik harakati g‘oyalaridan ilhomlanib, ularning davomchilari bo‘lgan, XX asrning 60-70-yillari o‘zbek she‘riyatida fikr va ongda o‘zgarish qilishga intilgan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Xurshid Davron kabi shoirlar bilan bir safda ijod qildi. Uning ijodida yaqqol ko‘zga tashlangan jihatlaridan biri, XX asr boshlarida millatni ozod ko‘rish istagida nohaq qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan jadid ijodkorlari timsoliga ko‘p murojaat qiladi. Shoirning “Saylanma”(1995)sida “Abdulla Qodiriy”, “Usmon Nosirning so‘nggi tushi”, “Oybekning so‘nggi she‘ri” kabi she‘rlari aynan shu mavzuda yaratilgan. Keyinchalik ushbu badiiy g‘oya ifodasi “Fonus”(2010) to‘plamidagi “Fayzulla Xo‘jayev monologi”, “Bazm”, “Cho‘lpon”, “Cho‘lpon.Sevgi”, “Cho‘lpon.Vatanni sevmok”, “Jimlik”da “XX asr. Qismat. Usmon Nosir” kabi she‘rlarida davom ettirildi. Mazkur she‘rlardagi umumiy bir jihat fidoiy jadidlar shaxsi, jasorati va kurashi orqali jadidchilik harakatining bosh g‘oyasi bo‘lgan erk va ozodlik g‘oyalari tarannum etiladi. Ular boshiga solgan mustabid tuzumning manfur siyosati “qora kunlari”i “Fayzulla Xo‘jayev monologi”da shunday tasvirlanadi.

Bilaman, yurak yo‘li zinama-zina...

Ammo qay azobdan ko‘zimda yoshim:

Dunyomni vayron etib, o‘rtayotgan nima

Erksizlikmi, yo devorga urilgan boshim?<sup>1</sup>

O‘n yetti yoshida jadidlar harakatiga qo‘shilgan, “Yosh buxoroliklar” partiyasiga asos solgan va amirlikka qarshi kurashgan, keyinchalik birinchi rahbar sifatida tarixda qolgan Fayzulla Xo‘jayevning taqdiri barchamizga ma‘lum. Xalq hayotini erkinlik, farovonlik va adolatli bo‘lishini istagan, zamondoshlarini dunyoviy ilmlarni egallashini istab, bir guruh yoshlarni xorijga o‘qishga yuborgan, fidoiy insonning hayoti ham “qatag‘on mashinasida” yakun

<sup>1</sup> Усмон Азим. Фonus. – Тошкент: Шарк, 2010. – Б.74.

topadi. She’rda ayni ushbu misralarda bu fojiali taqdir lirik qahramon tilidan shunday tasvirlanadi:

Qo’rqinchlisi shuki, kechib imondan –

Ta’zim qilamiz:

“Siz aylantirasiz charxni!..”

Qo’rqinchlisi shuki, ishoning ishonmang.

Hammamiz baxtlimiz, hammamiz baxtli.

Axir, o’ttiz yettinchi yil...

Bu miyammi o’qdan to’zigan?

Qurbonlik qo’yday o’limga ko’nayapman<sup>2</sup>.

Usmon Azim bu davr haqiqatlarini chuqur anglagan ijodkor sifatida aynan uning siymosiga murojaat qilishi bejiz emas. Ushbu she’rda haqiqat va yolg’on, Vatan erksizligi, kishanli mustabid tuzum, insoniy qadriyatlar va botiniy iztirob o’rtasida qolgan lirik qahramon qalbi ichki to’qnashuvlarda ochib beriladi. Shaxs erki masalasi, haqiqat, vijdon, adolat kabi umuminsoniy tuyg’ular ifodasi Fayzulla Xo’jayev timsolida mahorat bilan ko’rsatiladi. “Monolog lirikaning ustuvor nutq shakli, lirik qahramon kechinmalari asosan, uning monologi orqali ifodalanadi”<sup>3</sup>. Shoir ijodida ijroviy lirika namunalari yetakchi bo’lib, ayni ushbu she’r ham ular sirasiga kiradi. She’rda lirik qahramon ruhiyati she’riy monologda yoritilarkan, ijodkor uslubiga xos metaforiklik va ramziy obrazlar undagi badiiy g’oyani yoritishga xizmat qilgan.

Shoirning jadidchilik harakati g’oyalari bilan ta’sirlanib, yozgan she’rlarida o’quvchi o’tgan asrning mudhish qatag’on siyosati qurbonlarining fojiaiy taqdiri nafaqat milliy istiqlol harakati ekanini, balki vatanparvarlik, jasorat, shijoat va qo’rqmaslik kabi fazilatlar insonga g’oyatda zarur ekanligini anglaydi. Ayniqsa, “Cho’lpon.Vatanni sevmok” she’rida lirik qahramon tilidan jadidlar fojeasini tasvirlash bilan birga o’quvchiga Vatanga muhabbat kabi tuyg’ular o’z-o’zidan shakllanmasligi, balki unda qudratli ildiz, tarix va o’z davri voqeliklariga befarq qaray olmaslik, uning boshiga kulfat tushganda kurashish “og’ir” bo’lsa-da, ammo muqaddas burch ekanligi uqtiriladi:

Jonimni olsa-da

Zarama-zarra.

Sen borsan o’limdan

O’sdim ming karra.

Ko’kardim o’limda

gulladim oxir,

Vatan seni sevmok

O’limdan og’ir<sup>4</sup>.

Olim Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek: “Milliy istiqlol g’oyasi Cho’lpon she’riyatining o’q tomirini tashkil qilib, boshqa barcha mavzularga qon berib turadi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Zero, uning deyarli barcha she’rlarida – birining satrlari orasida, birining ishoralar asosida shakllanuvchi tagma’no qatlamida erk – ozodlik, istiqlol g’oyalari bo’y berib turadi.

<sup>2</sup> Shu kitob, 75-bet.

<sup>3</sup> Адабиётшунослик луғати. /Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В.179.

<sup>4</sup> Усмон Азим. Фонус. – Тошкент: Шарк, 2010. – Б.72.

Cho'lpon ijodi vaqt e'tibori bilan erk so'zining ma'no ko'lami g'oyat kengaygan, uning barcha qirralari o'ta dolzarblik kasb etgan bir sharoitda kechgan"<sup>5</sup>.

Umuman, shoir Cho'lpon taqdirini qalamga olgan she'rlarida bunga katta e'tibor qaratadi. Erk, Istiqol, Vatan mavzulari Cho'lpon tilida uning she'rlariga xos pafosda yangraydi.

Shoir ijodiy hamfikirlikda Cho'lponga o'zini yaqin tutib, hatto "XX asrda Cho'lpon bilan yozganim she'r"ida shunday yozadi:

Vatan, agar sen bo'lmasang,  
Bul dunyoda turmoq yo'qdir.  
Bul so'zim chin,  
Dunyo yolg'on!"<sup>6</sup>

Zero, jadid adabiyotida eng ustuvor bosh g'oya – Vatan ozodligi, millat Erki va istiqol edi. Ijodkorning "Kunduzsiz kechalar" dramasi Cho'lponga bag'ishlangan. Dramada muallif o'zi tasvirlayotgan davr ruhini chuqur his qiladi, shu bois ham o'tgan asrning 20-30-yillar ruhini, zamona kishilarining ma'naviy-ruhiy qiyofasini yoritadi. Ijodkor nafaqat mazkur dramatik asarida, balki she'rlarida ham ana shu mudhish yillar fojasini ko'rsatishga harakat qiladi.

Shuningdek, "Bazm" she'rida lirik qahramon Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir bilan hamsuhbat bo'ladi. Sochma she'r namunalaridan bo'lgan "XX asr. Qismat. Usmon Nosir" she'rida jadidlar fojeasi, nohaqlikda qurbon bo'lish, haqiqat va adolatsizlik bilan bir vaqtda shaxs erki masalasini qalamga oladi: "...Qamoq vagonlarda ochu nahor ketayotganlarning haqiqati esa qolib ketadi ko'z yosh to'kib Toshkent ko'chalarida. Sibirning sovug'ida izillaganlarning haqiqati muzlagan o'rmonda adashib qoladi bo'rilarga yem bo'lar okibat.

Lagerlarda ochdan o'layotganlarning haqiqati esa tikan simlarda osilib yotadi-bag'rini o'q teshib...

"Men ham odamman" degan harakatni xush ko'rmaydi yovuzlik. Yovuzlik juda tezkor.

Uning xizmatkorlari, josuslari, jallodlari, ijodkorlari, qo'shinlari, hukumatlari bor.

"Odamman" deganni bir zumda kiymalab tashlaydi. ...Eng dahshatlisi, hatto haqiqatsiz ham o'lib ketaveradi odam"<sup>7</sup>.

Usmon Azim, o'zbek adabiyotining yirik vakili sifatida millat, Vatan, Erk va qadriyatlarni ulug'lagan ijodkor. O'z ijodida yangi shakl va mazmun izlanishlarini amalga oshirgan shoir jadidchilik g'oyalarining badiiy ifodasini ular timsoli orqali yoritadi. Uning ijodida tarixiy shaxslar va voqealar tasviri muhim o'rin egallaydi. Shoir yuksak badiiy mahorat bilan tarixiy haqiqat va nohaq qatog'on zulmi ostida Erk va Vatan ozodligi uchun kurashgan jadid siymolari obrazini tasvirlab, she'rdagi bosh g'oya —Vatan va ozodlik, haqiqat va adolat, shaxs erki, insoniy qadriyatlarni ulug'laydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик луғати. /Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 397 б.
2. Усмон Азим. Фонус. – Тошкент: Шарк, 2010. – 160 б.
3. Усмон Азим У. Жимлик: назм, наср, драматургия. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт манба ижодий уйи, 2012. – 320 б.

<sup>5</sup> Куронов Д. Шоирлар ва шеърлар ҳақида.Мақолалар тўплами. – Андижон: "Илмий битиглар", 2023.. – Б.11.

<sup>6</sup> Усмон Азим. Танланган асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – В.441.

<sup>7</sup> Азим У. Жимлик: назм, наср, драматургия. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт манба ижодий уйи, 2012. – б.66.

4. Усмон Азим. Танланган асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – 488 б.
5. Куროнов Д. Шоирлар ва шеърлар ҳақида. Мақолалар тўплами. – Андижон: “Илмий битиглар”, 2023. –120 б.